



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Iloxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLİYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	



TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLIYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL

Babadjanov Shuxrat Atxamovich

“Ipoteka-bank” ATIB,

Savdoni moliyalashtirish departamenti boshlig'i,

TDIU mustaqil izlanuvchisi,

e-mail: Shukhrat.Babadjanov@ipotekabank.uz

ORCID: 0009-0004-2591-7189

Annotatsiya. O'zbekiston tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotining zamonaviy holati hamda uning bank moliyaviy xavfsizligiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda 2018-2025-yillarda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari, tashqi savdo saldos, asosiy savdo hamkorlari, eksport va importning tovar tarkibi, shuningdek, bank tizimining moliyaviy ko'rsatkichlari o'zaro bog'liqlikda baholangan. Tahlil natijalari 2018-yildagi 33,4 mlrd AQSH dollaridan 2025-yilda 81,2 mlrd AQSH dollarigacha oshgan tashqi savdo aylanmasi tijorat banklari tomonidan xalqaro hisob-kitoblar, akkreditivlar, bank kafolatlari, eksport-import kreditlari, faktoring, forfeyting hamda valyuta operatsiyalariga bo'lgan talabning sezilarli darajada ortishiga xizmat qilayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, import hajmining eksportdan yuqoriligi, tashqi savdo saldosining muntazam manfiy shakllanishi, ayrim hamkor mamlakatlar va tovar guruhlar bo'yicha konsentratsiyaning saqlanib qolishi banklar faoliyatida valyuta, likvidlik, kontragent, mamlakat, kredit va operatsion risklarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotini bank tizimi kapitali, likvidligi, kredit portfeli sifati hamda tashqi sektor ko'rsatkichlari bilan kompleks baholashning ilmiy asoslari yoritilgan va banklarning moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, tijorat banklari, moliyaviy xavfsizlik, tashqi savdoni moliyalashtirish, eksport, import, akkreditiv, bank kafolati, valyuta riski, likvidlik, bank tizimi, O'zbekiston.

Abstract. The current state of trade finance practices in the commercial banks of Uzbekistan and their impact on financial security are analyzed. The study evaluates the interrelationship between Uzbekistan's foreign trade turnover, export and import volumes, foreign trade balance, major trading partners, the commodity structure of exports and imports, and the financial indicators of the banking sector during 2018-2025. The findings indicate that the increase in foreign trade turnover from USD 33.4 billion in 2018 to USD 81.2 billion in 2025 has significantly expanded the demand for international settlements, letters of credit, bank guarantees, export-import financing, factoring, forfeiting, and foreign exchange operations provided by commercial banks. At the same time, the persistent excess of imports over exports, the continuous negative foreign trade balance, and the concentration of trade by partner countries and commodity groups have intensified currency, liquidity, counterparty, country, credit, and operational risks within the banking sector. The study substantiates the necessity of assessing trade finance practices in conjunction with banking sector capital, liquidity, loan portfolio quality, and external sector indicators, and proposes scientific and practical recommendations for strengthening the financial security of commercial banks.

Keywords: foreign trade, commercial banks, financial security, trade finance, exports, imports, letter of credit, bank guarantee, currency risk, liquidity, banking system, Uzbekistan.

Аннотация. Проведен анализ современного состояния практики финансирования внешней торговли в коммерческих банках Узбекистана и ее влияния на финансовую безопасность банковского сектора. В исследовании дана комплексная оценка взаимосвязи показателей внешнеторгового оборота Республики Узбекистан, объемов экспорта и импорта, сальдо внешней торговли, основных торговых партнеров, товарной структуры экспорта и импорта, а также финансовых показателей банковской системы за 2018-2025 годы. Результаты анализа показывают, что рост внешнеторгового оборота с 33,4



млрд долларов США в 2018 году до 81,2 млрд долларов США в 2025 году существенно увеличил спрос на международные расчеты, аккредитивы, банковские гарантии, экспортно-импортное кредитование, факторинг, форфейтинг и валютные операции. Одновременно превышение объемов импорта над экспортом, устойчивое отрицательное сальдо внешней торговли, а также концентрация торговли по отдельным странам-партнерам и товарным группам усиливают валютные, ликвидные, контрагентские, страновые, кредитные и операционные риски банков. Обоснована необходимость комплексной оценки практики финансирования внешней торговли во взаимосвязи с капиталом банковской системы, ликвидностью, качеством кредитного портфеля и показателями внешнего сектора, а также предложены научно-практические рекомендации по укреплению финансовой безопасности коммерческих банков.

Ключевые слова: внешняя торговля, коммерческие банки, финансовая безопасность, финансирование внешней торговли, экспорт, импорт, аккредитив, банковская гарантия, валютный риск, ликвидность, банковская система, Узбекистан.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida tashqi savdo aloqalarining kengayishi, xalqaro hisob-kitoblar hajmining ortishi hamda eksport-import operatsiyalarining murakkablashuvi tijorat banklarining moliyaviy vositachilik rolini yanada kuchaytirmoqda. Tashqi savdo jarayonlarida xalqaro to'lovlar, valyuta operatsiyalari, hujjatli hisob-kitoblar, akkreditivlar, bank kafolatlari, eksport-import kreditlari va boshqa *trade finance* instrumentlari bevosita tijorat banklari ishtirokida amalga oshiriladi. Shu sababli tashqi savdo dinamikasi tijorat banklari faoliyatining daromadligi bilan bir qatorda, ularning moliyaviy xavfsizligi, likvidligi, kapital yetarliligi hamda risklarga bardoshlilik bilan ham uzviy bog'liq hisoblanadi [1], [2].

O'zbekiston iqtisodiyotida tashqi savdo hajmining izchil kengayib borayotgani tijorat banklari oldiga yangi vazifalarni qo'yarmoqda. 2018-2025-yillarda mamlakat tashqi savdo aylanmasi 33,4 mlrd AQSH dollaridan 81,2 mlrd AQSH dollarigacha oshib, qariyb 2,4 baravarga kengaydi. Eksport hajmi 14,0 mlrd AQSH dollaridan 33,8 mlrd AQSH dollarigacha, import hajmi esa 19,4 mlrd AQSH dollaridan 47,4 mlrd AQSH dollarigacha o'sdi [3]. Mazkur tendensiya xalqaro hisob-kitoblar, akkreditivlar, bank kafolatlari, import kreditlari, eksportoldi moliyalashtirish, faktoring, forfeyting hamda valyuta operatsiyalariga bo'lgan talabning ortishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, import hajmining eksportga nisbatan yuqoriligi, tashqi savdo saldosing muntazam manfiy shakllanishi hamda ayrim mamlakatlar va tovar guruhlari bo'yicha konsentratsiyaning mavjudligi banklar faoliyatida valyuta, likvidlik, kontragent, mamlakat, kredit va operatsion risklarning kuchayishiga ta'sir ko'rsatmoqda [4].

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotining rivojlanish tendensiyalarini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish hamda tashqi savdo dinamikasining bank moliyaviy xavfsizligiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi savdo aylanmasi, eksport-import ko'rsatkichlari, tashqi savdo saldos, hamkor mamlakatlar tarkibi, eksport-importning tovar tuzilmasi, bank tizimining moliyaviy ko'rsatkichlari hamda tashqi sektor indikatorlari o'zaro bog'liqlikda tadqiq etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi savdoni moliyalashtirish va uning bank tizimi barqarorligiga ta'siri xalqaro ilmiy adabiyotlarda savdo moliyasi instrumentlari, xalqaro hisob-kitoblar, bank risklari hamda moliyaviy xavfsizlik indikatorlari bilan bog'liq holda keng tadqiq etilgan. Xususan, A. Auboin tashqi savdo operatsiyalarida *trade finance* instrumentlarining eksport-import bitimlari uzluksizligini ta'minlash, likvidlik cheklovlarini yumshatish hamda xalqaro savdo oqimlarini qo'llab-quvvatlashdagi o'rnini asoslab bergan [1]. M. Chorafas bank risklarini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda likvidlik, kapital yetarliligi hamda xalqaro operatsiyalar bilan bog'liq risklarni kompleks baholash zarurligini ta'kidlaydi [2]. R. C. Merton va Z. Bodie moliyaviy vositachilik institutlari faoliyatida risklarni taqsimlash, likvidlikni ta'minlash hamda to'lov tizimlari barqarorligini banklarning asosiy funksiyalari sifatida talqin etgan [3]. Xalqaro valyuta jamg'armasi va *Bank for International Settlements* tadqiqotlarida esa banklarning moliyaviy barqarorligini kapital yetarliligi, aktivlar sifati, likvidlik, daromadlilik hamda tashqi sektor risklari bilan bog'liq indikatorlar asosida baholash yondashuvi asoslab berilgan [4], [5].

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi, bank barqarorligi, tashqi savdoga xizmat ko'rsatish hamda eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish masalalari alohida o'rganilgan. F.X. Axmedov O'zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga xizmat ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish, hujjatli akkreditivlar, valyuta operatsiyalari hamda tashqi savdoni kreditlashda valyuta



risklarini kamaytirish masalalariga e'tibor qaratgan [6]. Sh.I. Xudaynazarov tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotida eksport kreditlari, kafolatlar, eksport sug'urtasi hamda faktoring instrumentlarining ahamiyatini asoslab bergan [7]. B.U. Akbarov va D.M. Malikova tadqiqotlarida esa tijorat banklarining moliyaviy hamda iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda kapital yetarliligi, likvidlik, risklarni boshqarish va bank barqarorligi ko'rsatkichlarining metodologik ahamiyati yoritilgan [8], [9]. Mazkur tadqiqotlar muhim ilmiy asos yaratgan bo'lib, O'zbekiston tashqi savdo dinamikasi, eksport-import tarkibi, bank tizimining moliyaviy ko'rsatkichlari hamda tashqi sektor indikatorlarini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish orqali tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotining bank moliyaviy xavfsizligiga ta'sirini yanada kompleks baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda statistik tahlil, dinamik tahlil, taqqoslama tahlil, tarkibiy tahlil, indikatorli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Statistik va dinamik tahlil usullari yordamida 2018-2025-yillarda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlari, tashqi savdo saldosi hamda ularning o'sish sur'atlari baholandi. Taqqoslama tahlil orqali eksport va import dinamikasi, tashqi savdo saldosi o'zgarishi, hamkor mamlakatlarning ulushi hamda eksport-import tarkibidagi asosiy tovar guruhlari o'zaro solishtirildi.

Tarkibiy tahlil usuli asosida tashqi savdo aylanmasining mamlakatlar, tovar guruhlari va eksport-import yo'nalishlari kesimidagi xususiyatlari baholandi. Bunda Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi asosiy hamkor mamlakatlarning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, shuningdek, eksport tarkibidagi qimmatbaho metallar, paxta, mineral yoqilg'i, mis, kimyo mahsulotlari va meva-sabzavotlar hamda import tarkibidagi mashina-uskunalar, elektr jihozlari, transport vositalari, yoqilg'i, qora metallar va farmatsevtika mahsulotlarining bank xizmatlariga ta'siri tahlil qilindi. Ushbu yondashuv tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotida mamlakat, tarmoq, mahsulot va kontragent konsentratsiyasi risklarini aniqlashga xizmat qiladi.

Indikatorli yondashuv asosida tashqi savdo ko'rsatkichlari bank tizimining asosiy moliyaviy indikatorlari — aktivlar, kredit portfeli, depozitlar, kapital, kapital yetarliligi, likvidlik, muammoli kreditlar ulushi, ROA va ROE ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liqlikda baholandi. Shuningdek, tashqi sektor ko'rsatkichlari, jumladan, joriy operatsiyalar hisobi saldosi, savdo balansi, xalqaro zaxiralar va tashqi qarz dinamikasi banklarning valyuta, likvidlik, kontragent hamda mamlakat risklariga ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv tashqi savdo dinamikasi bilan bank moliyaviy xavfsizligi o'rtasidagi amaliy bog'liqlikni kompleks baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekiston tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotining rivojlanishi, avvalo, mamlakat tashqi savdo hajmi, eksport-import tarkibi hamda bank tizimining moliyaviy salohiyati bilan bevosita bog'liq. Shu sababli tahlilda tashqi savdo dinamikasi, asosiy hamkor mamlakatlar, eksport-importning tovar tarkibi, bank tizimi ko'rsatkichlari hamda tashqi sektor indikatorlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi (1-jadval).

1-jadval.
O'zbekiston tashqi savdo ko'rsatkichlarining dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2025-yil	O'zgarish tavsifi
Tashqi savdo aylanmasi, mlrd AQSH dollari	33,4	81,2	qariyb 2,4 baravar oshgan
Eksport, mlrd AQSH dollari	14,0	33,8	2,4 baravarga oshgan
Import, mlrd AQSH dollari	19,4	47,4	2,4 baravarga oshgan
Tashqi savdo saldosi, mlrd AQSH dollari	-5,4	-13,5	manfiy saldo saqlanib qolgan


1-jadval ma'lumotlari 2018-2025-yillarda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Mazkur holat tijorat banklari tomonidan xalqaro hisob-kitoblar, akkreditivlar, bank kafolatlari, eksport-import kreditlari, faktoring, forfeyting hamda valyuta operatsiyalariga bo'lgan talabning ortib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, import hajmining eksportga nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi hamda tashqi savdo saldosi manfiyligi banklar faoliyatida valyuta likvidligi, import to'lovlari, kontragent va mamlakat risklarini samarali boshqarish zaruratini yanada kuchaytiradi (1-rasm).

¹ Muallif ishlanmasi



1-rasm. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining asosiy hamkor mamlakatlar kesimidagi tarkibi, 2024-yil²

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida Xitoy va Rossiyaning umumiy ulushi 36,6 foizni tashkil etgan. Bu tashqi savdo aloqalarida yirik hamkor mamlakatlar ulushining salmoqli ekanini ko'rsatadi. Tijorat banklari uchun bunday holat korrespondent banklar bilan hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro to'lovlar uzluksizligini ta'minlash, sanksion cheklovlar, logistika zanjirlari hamda kontragent risklarini muntazam monitoring qilishning muhimligini belgilaydi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston eksportining asosiy tovar guruhlari tarkibi, 2024–2025-yillar³

2 Muallif ishlanmasi
3 Muallif ishlanmasi



2-rasm ma'lumotlari eksport tarkibida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar guruhi eng yuqori ulushga ega ekanini ko'rsatadi. Mazkur tovar guruhi ulushi 2024-yilda 39,5 foizni, 2025-yilda esa 43,9 foizni tashkil etgan. Ushbu holat eksport tushumlarida yuqori qiymatga ega ayrim tovar guruhlari ulushining salmoqli ekanini ifodalaydi. Tijorat banklari uchun bunday tarkib eksportoldi moliyalashtirish, eksport tushumlarini monitoring qilish, faktoring, forfeyting hamda valyuta risklarini boshqarish xizmatlarini yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi (2-jadval).

2-jadval.
O'zbekiston importining asosiy tovar guruhlari tarkibi, 2024–2025-yillar

№	Tovar guruhi	2024-yil, mln AQSH dollari	Ulushi, %	2025-yil, mln AQSH dollari	Ulushi, %
1	Mashina va mexanik uskunalar	5 942,2	17,0	7 362,9	17,7
2	Mineral yoqilg'i, neft va uni qayta ishlash mahsulotlari	3 953,1	11,3	3 998,8	9,6
3	Elektr mashinalar va uskunalar	3 466,1	9,9	4 115,5	9,9
4	Yer usti transport vositalari va ularning qismlari	3 453,8	9,9	3 806,8	9,1
5	Qora metallar	1 997,1	5,7	2 570,2	6,2
6	Farmatsevtika mahsulotlari	1 677,0	4,8	1 890,9	4,5
7	Plastmassalar va ulardan tayyorlangan buyumlar	1 213,1	3,5	1 571,8	3,8
8	Qora metallardan tayyorlangan buyumlar	1 153,6	3,3	1 244,7	3,0

2-jadval ma'lumotlari import tarkibida mashina va mexanik uskunalar, mineral yoqilg'i, elektr mashinalar, transport vositalari, qora metallar hamda farmatsevtika mahsulotlari yuqori ulushga ega ekanini ko'rsatadi. Mazkur holat tijorat banklari uchun import akkreditivlari, bank kafolatlari, import kreditlari, xalqaro to'lovlar hamda valyuta operatsiyalariga bo'lgan talabning yuqoriligini anglatadi. Ayniqsa, mashina-uskunalar va transport vositalari importi yirik summali bitimlar bilan bog'liq bo'lgani sababli, bunday operatsiyalarda mijozning to'lov qobiliyati, garov ta'minoti, kontragentning ishonchligi hamda valyuta riskini puxta baholash muhim ahamiyat kasb etadi (3-jadval).


3-jadval.
O'zbekiston bank tizimining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2025-yil	O'zgarish tavsifi
Bank tizimi aktivlari, trln so'm	366,1	924,8	qariyb 2,5 baravar oshgan
Kredit portfeli, trln so'm	277,0	604,0	2,2 baravarga oshgan
Depozitlar, trln so'm	114,7	417,3	3,6 baravarga oshgan
Kapital, trln so'm	58,4	135,3	2,3 baravarga oshgan
Kapital yetarliligi, %	18,4	17,4	prudensial darajada saqlanib qolgan
Yuqori likvidli aktivlar / jami aktivlar, %	14,2	21,1	likvidlik salohiyati oshgan
NPL, %	2,1	3,0	kredit riski nazorat darajasida saqlanib qolgan

3-jadval ma'lumotlari bank tizimida tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotini yanada kengaytirish uchun zarur moliyaviy asos shakllanayotganini ko'rsatadi. Aktivlar, kredit portfeli, depozitlar hamda kapital hajmining o'sishi banklarning eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish, xalqaro hisob-kitoblar hajmini kengaytirish va yirik korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish salohiyatini oshirmoqda. Shu bilan birga, NPL ko'rsatkichining mavjudligi hamda tashqi savdo operatsiyalarining valyuta, kontragent va likvidlik risklari bilan bog'liqligi banklarda risklarni baholash va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.



O'zbekiston tashqi sektorining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (3D)



3-rasm. O'zbekiston tashqi sektorining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

3-rasm ma'lumotlari tashqi sektor ko'rsatkichlarida eksport va import hajmi kengayganini, shu bilan birga savdo balans saldosining manfiy holati saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Xalqaro zaxiralarning ortishi tashqi to'lovlar barqarorligini ta'minlashda muhim ijobiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, umumiy tashqi qarz hajmining oshishi valyuta kursi, tashqi moliyalashtirish qiymati hamda xalqaro foiz stavkalari bilan bog'liq risklarni doimiy monitoring qilish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur holat tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotini valyuta likvidligi, import to'lovlari, kontragent riski hamda mamlakat riski bilan o'zaro bog'liqlikda boshqarish muhimligini tasdiqlaydi.

Umumiy tahlil natijalari O'zbekiston tashqi savdosining kengayishi tijorat banklari uchun tashqi savdoni moliyalashtirish xizmatlarini rivojlantirish, daromadlar bazasini diversifikatsiya qilish hamda xalqaro moliyaviy xizmatlar bozoridagi ishtirokini kengaytirish imkonini yaratayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, import ulushining yuqoriligi, tashqi savdo saldosining manfiyligi, ayrim mamlakatlar va mahsulot guruhlar bo'yicha konsentratsiyaning mavjudligi hamda tashqi sektor risklarining ortib borishi bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda **"hajm - tarkib - risk - moliyaviy xavfsizlik"** tamoyili asosida kompleks baholash yondashuvining muhimligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tashqi savdo hajmining kengayishi tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish xizmatlariga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirmoqda. 2018–2025-yillarda tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmlarining o'sishi xalqaro hisob-kitoblar, akkreditivlar, bank kafolatlari, eksport-import kreditlari, faktoring, forfeyting va valyuta operatsiyalarining bank amaliyotidagi ahamiyatini kuchaytirgan. Shu bilan birga, tashqi savdo saldosining manfiy shakllanishi, import hajmining eksportga nisbatan yuqoriligi hamda ayrim mamlakatlar va tovar guruhlar bo'yicha konsentratsiyaning mavjudligi bank moliyaviy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi risk omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar bank tizimining aktivlari, kredit portfeli, depozit bazasi va kapital hajmining o'sishi tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish uchun zarur moliyaviy asos shakllanayotganini ko'rsatdi. Biroq muammoli kreditlar ulushining saqlanib qolishi, daromadlilik ko'rsatkichlarining tebranishi, valyuta likvidligiga bo'lgan talabning ortishi va tashqi sektor ko'rsatkichlaridagi nomutanosibliklar banklardan risklarni boshqarish



tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi. Shu sababli tashqi savdoni moliyalashtirish amaliyotini faqat operatsiyalar hajmi yoki xizmatlar ko'lamiga bilan emas, balki "hajm — tarkib — risk — moliyaviy xavfsizlik" tamoyili asosida baholash maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun tashqi savdoni moliyalashtirish portfelini mamlakatlar, tarmoqlar, mahsulot guruhlari, mijozlar va valyutalar kesimida muntazam monitoring qilish zarur. Import operatsiyalarida valyuta likvidligi, akkreditivlar, bank kafolatlari va import kreditlari bo'yicha limitlar belgilash; eksport yo'nalishida esa eksportoldi moliyalashtirish, faktoring, forfeyting va eksport tushumlari monitoringini kengaytirish lozim. Shuningdek, xalqaro hisob-kitoblarda kontragent va mamlakat riskini baholash, korrespondent banklar bilan alternativ kanallarni rivojlantirish, sanksion va komplayens nazoratini kuchaytirish hamda tashqi savdoni moliyalashtirish instrumentlarini bank kapitali, likvidligi va risklarga bardoshliligi bilan uyg'un holda boshqarish tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Chamber of Commerce Academy. *What is Trade Finance? An Introductory Guide* [Elektron resurs]. – 2024. – URL: <https://academy.iccwbo.org/international-trade/article/what-is-trade-finance/>.
2. Committee on the Global Financial System. *Trade Finance: Developments and Issues* (CGFS Papers No. 50). – Basel: Bank for International Settlements, 2014. – URL: <https://www.bis.org/publ/cgfs50.pdf>.
3. International Monetary Fund. *Financial Soundness Indicators Compilation Guide*. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2019. – URL: <https://www.imf.org/en/data/statistics/fsi-guide>.
4. Bank for International Settlements. *Basel III: International Regulatory Framework for Banks* [Elektron resurs]. – URL: <https://www.bis.org/bcbs/basel3.htm>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. *O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi bo'yicha statistik ma'lumotlar* [Elektron resurs]. – 2025. – URL: <https://stat.uz>.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari* [Elektron resurs]. – 2025. – URL: <https://cbu.uz>.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi va tashqi qarzi bo'yicha statistik ma'lumotlar* [Elektron resurs]. – 2025. – URL: <https://cbu.uz>.
8. World Trade Organization. *Trade Finance and SMEs: Bridging the Gaps in Provision*. – Geneva: World Trade Organization, 2016. – URL: https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/tradefinsme_e.pdf.
9. Auboin M. *Boosting the Availability of Trade Finance in the Current Crisis: Background Analysis for a Substantial G20 Package*. – Geneva: World Trade Organization, 2009.
10. Merton R. C., Bodie Z. A Conceptual Framework for Analyzing the Financial Environment // *The Global Financial System: A Functional Perspective* / ed. by D. B. Crane et al. – Boston: Harvard Business School Press, 1995.
11. Chorafas D. N. *Economic Capital Allocation with Basel II: Cost, Benefit and Implementation Procedures*. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2004.
12. Axmedov F. X. *O'zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga xizmat ko'rsatishini takomillashtirish*: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, 2018.
13. Xudaynazarov Sh. I. *Tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish*: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Denov: Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, 2026. – URL: <https://api.ziynet.uz/uploads/books/10000184/bczpD1F0vvpvPX.pdf>.
14. Akbarov B. U. *Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish*: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024.
15. Malikova D. M. *Tijorat banklari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslarini takomillashtirish*: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024.
16. Ташмухамедова Я. А. Влияние социально-демографических факторов на обеспечение экономической безопасности страны // *Innovation Science and Technology*. – 2025. – Т. 1. – № 10. – С. 47–51.
17. Tashmuxeimedova Y. *Yangi O'zbekiston sharoitida soliq ma'muriyatchiligi transformatsiyasi va uning moliyaviy xavfsizlikka ta'siri* // *Green Economy and Development*. – 2025. – Vol. 4. – No. 1. – P. 668–670. – URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/8756>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>